

RO'ZIMUROD MAHMUD SHE'RLARIDA TASAVVUFYIY
QARASHLAR VA ILOHIY ISHQ

Mohinur Saidova Yoqubjon qizi

Buxdu 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shoirlaridan biri bo'lmish Ro'zimurod Mahmud she'rlari va ruboiylarida tasavvufiy qarashlar va Allohga bo'lgan iltijosi haqida fikr yuritiladi. Hamda, uning "Gulnoma" nomli to'plamiga kiritilgan to'rtliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tangri, tasavvuf, shariat, ma'rifat, komillik, gulnoma, ruboiy.

Shoir Ro'zimurod Mahmud Buxoro viloyati Rometan tumani Xo'jalar qishlog'ida tug'ilib, Peshko' tumanidagi Kallasang qishlog'ida o'sgan. 1981-yilda Buxoro Davlat Pedagogika institutining Rus filologiyasi fakultetini tugatgan. U ko'p yillar viloyat va shahar Ma'naviyat targ'ibot bo'limlarida rahbarlik qilgan.

1994-2002-yillarda Buxoro MTI ning katta o'qituvchisi vazifasida ishlagan. Muallifning "Ishq olovi", "Qalbm sizniki", "Tillo o'gitlar", nomli nazmiy to'plamlari va hammualliflikda "Adabiy Buxoro", "Peshko' qalamkashlari", bayozlari, "Mashrab falsafasi va lirikasi" nomli ilmiy to'plamlari nashr ettirilgan va turli mavzudagi maqolalari matbuotda chop etilgan

2002-yilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan o'tkazilgan voizlar tanlovida "Eng yaxshi voiz" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildi. Ayni paytda Buxoro viloyat "Karvon" madaniy merosni o'rganish va turizmni rivojlantirish markazi raisi vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

U o'zining "Gulnoma" nomli she'riy to'plami orqali bizga ruboiy va to'rtliklarni armug'on qilgan. Bu to'plamning kirish qismida shoir o'z ustozini, tasavvufshunos olim Sadridin Salim Buxoriyning yorqin xotirasiga bag'ishlangan she'rni ko'rishimiz mumkin.

Sadridin aka doim Haqni o'ylardi,
Dilda ham, tilde ham Haqni so'ylardi.
Iymon ummonidan dur, marjon terib,
Barini, borini elga ulardi.

Sadridin akada xayobore di,
Sururli xayol-u ziyo bor edi.
Qalbini to'ldirgan hikmatlar bilab,
Sharif shahar ichra dunyo bore di.

Ushbu nazmiy to'plamdagi to'rtliklarning ko'pchiligida Allohga bo'lgan iltijo ohangini kuzatishimiz mumkin.

Muhabbat bordirki, boqiydir dunyo,
Muhabbat bordirki, har damda ziyo.
Hayot lahzalari burkansin ishqga,
Tiriklikka bo'lib Tangrim rahnamo.

Muhabbat haqida urmang also lof,
Muhabbat oy erur, muhabbat-oftob,
Muhabbat muqaddas Tangrim in'omi,
Muhabbatsiz hayot-vayrona xarob.

Yuqoridagi ikkala to'rtlikda ham shoir Allohga bo'lgan muhabbatni ifodalash orqali o'zining yolg'iz Haq yo'lida ekanligini ifodalamoqchi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bilamizki, tasavvufda ishq ikki xil bo'ladi, ya'ni Allohga bo'lgan ishq va bandasiga bo'lgan muhabbat (ishqi ilohiy va ishq majoziy).

Ko'ngilning ko'shkida malaksan tanho,
Ko'plar yetolmagan tilaksan tanho.
Shukrlar aylagum doim Tangrimga,
Tilagi ushalgan yuraksan tanho.

Ushbu to'rtlikning 1-misrasidayoq shoirning o'ziga xos tashbeh qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. "Ko'ngil ko'shki" bu shoir ilk bor qo'llagan o'xshatishlardan biridir. Bundan tashqari to'rtlikda shukronalik ohangini ham kuzatamiz:

Shukrona aylagum doim tangrimga.
Toat-u ibodat ishi poklikdir,
Sabr-u sadoqatga meva shodlikdir.
Gar kimki bu holga beparvo bo'lsa,
El aro topgani yomon otliqdir.

Haq dargohiga yetishning asosiy yo'llaridan biri bu toat-ibodat qilish va sabr-toqatdir. Alloh yo'lida yaxshilik qilish va uning bizga buyurgan farzlarini ado qilish orqali yomon otliq bo'lishni oldini olish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, shoir o'zining to'rtlik va ruboiylarida tasavvufiy qarashlar va Allohga bo'lgan muhabbatni, hamda Haqqa yetish istagini go'zal tashbehlar orqali ifodalagan. U o'zining har bir she'rida ishq ilohiyini ulug'lagan.

Ma'lumki, adabiyot mavzularining markazida inson, uning ruhiyat dunyosi yotadi. Insonning kechinmalari esa, asosan, ikki yo'nalishda kechadi: biri-insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga, sodda qilib aytsak, maxluqning

Xoliqqa munosabati, nisbati masalasi; ikkinchisi insonning o'zi singari maxluqlarga, ya'ni o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati.

Birinchi yo'nalish insonni o'z ko'ngli bilan suhbatga chaqiradi, ruhiyatning ichki teran qatlamlariga yo'nalgan bo'ladi. Ikkinchi yo'nalishda ijtimoiy munosabatlar tizimida har bir insonning o'rni masalasiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Buyuklarning biror so'zi behikmat bo'lmaydi. Nega Mavlono Jaloliddin Attorni «ruh»ga Sanoiyni esa «ikki ko'z»ga qiyos etadi? «Hadoyiq ul-haqiqat» asarini Yevropa sharqshunoslari uzoq vaqt «tasavvuf qomusi» deb talqin etdilar.

Inson har bir a'zosining alohida vazifasi bor. Masalan, ko'zning vazifasi ko'rish, quloqniki eshitish, tilga so'zlash vazifasi yuklatilgan, qalbning ishi esa sevishdir. Qalb yo Alloh taoloni sevadi yoki U zotning mahluqlarini yaxshi ko'radi. Bandaning qalbida yo oxirat yo dunyo muhabbati bo'ladi. Oxiratning muhabbati bilan qalb yaxshiliklarga shoshadi. Dunyo muhabbati borasida esa, hadisi sharifda bunday ta'riflanadi: “Dunyo muhabbati barcha yomonliklarning boshidir”.

Muhabbat - bu inson tabiatini zavqlantiruvchi tuyg'udir. Muhabbat eng oliy darajasi ISHQ deyiladi.

Ilohiy ishq suvga o'xshaydi. Agar suv bo'lmasa, daraxt yam - yashil bo'lib o'smaydi. Unga suv quyilsagina u gullaydi, meva beradi. Insondagi ilohiy ishq ham daraxtning suvi kabi. Agar insonda ilohiy ishq bo'lsa, uning iymoni gullay boshlaydi va undan mo'minlik ifori taraladi va yon - atrofni ham o'rab oladi.

Ro'zimurod doim ibrat ko'zin och,
Ishqsizlar ahliga yaqin bo'lma qoch.
Oshiqlar davrasi ko'ngling shod etib,
Mehr-u muhabbatni boshga etar toj.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro'zimurod Mahmud.Gulnoma."Buxoro".2016.
2. N.Komilov.Tasavvuf.Toshkent.2009.
3. A.Husayniy.Badoye us-sanoe.